GLOBALLASHUV VA TEXNOLOGIYALAR TA'SIRIDA YOSHLAR TAOMLANISH MADANIYATINING TRANSFORMATSIYAS

Yodgorova Sarvinoz Musalimxon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Ozbekiston Milliy universiteti

Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxasisligi

2-bosqich magistranti

E-mail: yodgorovasarvinoz9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar ta'sirida Farg'ona vodiysi yoshlarining taomlanish madaniyatida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda taomlanish tizimi nafaqat biologik ehtiyoj, balki etnik identifikatsiya, ijtimoiy maqom va raqamli makonda milliy o'zlikni namoyish etish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada yoshlarning taom tanlash xulq-atvoriga ko'ra yangi tipik guruhlari tasniflangan hamda an'anaviy oilaviy qadriyatlar va global trendlar o'rtasidagi "gibrid" modelning shakllanishi sotsiologik va antropologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy "fud-bloging" va virtual iste'mol madaniyatining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Taomlanish madaniyati, Farg'ona vodiysi, yoshlar sotsiologiyasi, globallashuv, transformatsiya, gastronomik millatchilik, raqamli iste'mol, etnik identifikatsiya, ommaviy madaniyat, gibrid model.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, ovqatlanish tizimini ilmiy asosda o'rganish zaruratga aylandi. Ushbu davrda ovqatlanish uchta asosiy yo'nalish — tabiiy fanlar, etnografiya va sotsiologiya kesimida tadqiq etila boshlandi. Bu yondashuv taomlanishni nafaqat biologik ehtiyoj, balki madaniyatni saqlab qolishning muhim omili sifatida baholash imkonini berdi. Bugungi kunda taomga to'rt xil yondashuv shakllandi: jismoniy

sog‘liq manbai, etnik qadriyat, ijtimoiy odat va shaxs maqomini belgilovchi vosita. G‘arbda shakllangan “iste’mol farovonligi” va “menyu sotsiologiyasi” tushunchalari globallashuv ta’sirida O‘zbekiston hududiga, xususan, Farg‘ona vodiysi yoshlari hayotiga ham jadallik bilan kirib keldi. Natijada, ovqatlanish amaliyoti shunchaki qorin to‘ydirish emas, balki zamonaviy hayot tarzini namoyish qilish va yangi ijtimoiy trendlarga moslashish jarayoniga aylanmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyatda iste’molchilar nafaqat mahsulot tanlovi, balki turli xil muqobil parhezlar va ilmiy tavsiyalar oqimida to‘g’ri qaror qabul qilish zarurati bilan to‘qnash kelmoqdalar. Etnologiya va ijtimoiy antropologiya fanlarining evolyutsiyasi taomlanish tizimini tadqiq etishda yangi nazariy ufqlarni ochdi. Etnografik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bir dasturxon atrofida jamlanish jamiyatda kuchli kommunikativ funksiyani bajaradi. Taom orqali insonlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar o‘rnatiladi yoki mustahkamlanadi. Masalan, “tuz-namak bo‘lish” an’anasi dushmanlik kayfiyatini yumshatuvchi diplomatik vosita bo‘lsa, nikoh marosimlarida kelin-kuyovning birgalikda taomlanishi yangi ijtimoiy ittifoqning legitimlashuvi ramzidir.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda an’anaviy oziq-ovqat tizimini o‘rganish etnologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Moddiy madaniyatning boshqa shakllari bilan taqqoslaganda, taom — eng konservativ va barqaror element hisoblanadi. U etnik o‘zlikni saqlab qoluvchi asosiy “kod” sifatida tashqi ta’sirlarga chidamli bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda u ham muayyan transformatsiyaga yuz tutmoqda. Pyer Burdye ta’kidlaganidek, taom iste’moli jamiyatda o‘ziga xos “farqlash” vazifasini bajaradi. Ya’ni, insonning nima yeyishi, qayerda ovqatlanishi va dasturxon tuzash madaniyati uning qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligini ko‘rsatib beradi. Farg’ona vodiysi yoshlari taomlanish madaniyatidagi transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda, avvalo, ularning yashash sharoiti va oilaviy muhitini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarning 78,7 foizi oilaning yaqin a’zolari bilan, 13,5 foizi “yosh oila’’ sifatida yashaydi. Bu esa muammolarni birgalikda oilaviy sharoitda hal etishga, yoshlarning oilaviy munosabatlar tizimini o’rganishga yordam beradi. O’zbekiston

yoshlarining asosiy qismi (65,6%) doimiy ravishda mazkur an'analarga amal qilib kelsa, ma'lum bir qismi faqat imkon bo'lgan vaqtlardagina bajarishini ma'lum qilgan.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar va kuzatuvlar natijasida Farg'ona vodiysi yoshlarining ovqatlanish xulq-atvori turlicha ekanligi aniqlandi. Birinchi guruhni "Sog'lom turmush tarzi" tarafdorlari tashkil etib, ular taom tanlashda uning tarkibi va organizmga foydasiga birlamchi e'tibor qaratadilar. Ularning asosiy maqsadi — salomatlikni saqlash va tashqi ko'rinishni nazorat qilishdir. "Iqtisodiy tejamkor" qatlam uchun esa taomning narxi hal qiluvchi omil bo'lib, moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli sifatdan ko'ra arzon va to'yimli yeguliklarni tanlashga majbur bo'ladilar. "Vaqt tig'izligi" guruhi vakillari o'qish va ish yuklamasining ko'pligi sababli tez tayyor bo'ladigan (Fast Food) mahsulotlarni afzal ko'radilar. "An'anaviy-konservativ" yondashuv vakillari esa shaxsiy xohish-istaklari va oilada shakllangan milliy-madaniy odatlariga tayanib, ko'cha ovqatlaridan shubhalanadilar. Biroq, XXI asr — axborot texnologiyalari asri ekanligini inobatga olsak, bugungi yoshlarning ovqatlanish xulq-atvori nafaqat hamyon, balki virtual makon asosida ham kuchli transformatsiyaga uchramoqda. "Vizual trend izdoshlari" uchun ovqatlanish — ijtimoiy tarmoqlar uchun kontent yaratish manbai bo'lib, ular taomning ta'midan ko'ra, uning tashqi ko'rinishiga va mashhur "fud-bloger"larning tavsiyalariga tayanadilar. "Raqamli qulaylik tarafdorlari" esa zamonaviy ilovalar orqali buyurtma berishni afzal ko'radigan, vaqtini qadrlaydigan qatlamdir.

Shu bilan birga, Farg'ona yoshlarining taomlanish madaniyatida diniy va milliy omillar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning muayyan qismi ovqat tanlovida "Halol" standartlariga va diniy taqiqlarga jiddiy e'tibor qaratadilar. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda talaba yoshlarning ovqatlanish ratsionida "madaniy o'zlashtirishlar" jarayoni jadallashgani kuzatilmoqda. Xususan, an'anaviy milliy taomlar o'rnini globallashgan oziq-ovqat mahsulotlari — pizza, sushi, rollar va sendvichlar egallamoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra talabalar orasida zamonaviy ichimliklar — kokteyl, energetiklar va klassik brendlarga talab ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda sog'lom ovqatlanish va ideal tana haqidagi tasavvurlar ko'pincha ijtimoiy-madaniy normalar va moda orqali shakllanadi. Ishlab chiqaruvchilar va media-makon tomonidan

singdirilayotgan ushbu standartlar yoshlar orasida o‘ziga xos imidjini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Talabalik davri inson hayotida taomlanish odatlari eng keskin o‘zgaradigan bosqichdir. An’anaviy oilaviy kechki ovqatlar o’rnini talabalar turar joylarida tayyorlanadigan “tezkor lag’monlar” va yarim tayyor mahsulotlar egallagan. Ichimliklar borasida esa “qahva madaniyati” va energetik ichimliklar yetakchilik qilmoqda. Akademik yuklamalar va imtihonlar vaqtida kofeinli ichimliklar talabaning ajralmas hamrohiga aylanib, an’anaviy choy iste’mol qilish madaniyatini siqib chiqarmoqda.

Shved sotsiologi Per Menson tomonidan taklif etilgan “park xiyobonlaridagi qayiq” metaforasi ushbu holatni tushuntirishda muhim konseptual asos bo’ladi. Individ o’zini erkin harakatlanayotgandek his qilsa-da, uning yo‘nalishi jamiyat tomonidan oldindan belgilab qo’yilgan. Sidney Cheung ta’kidlaganidek, globallashuv davrida milliy taomlar o‘zgarib borsa-da, odamlar o‘zligini aynan tam orqali saqlab qolishga harakat qilishadi. Farg’ona vodiysi yoshlari misolida xorijiy taomlar salmog’i ortib borayotgani milliy o‘zlikdan uzoqlashish emas, balki zamonaviy turmush tarziga moslashish jarayonidir. O‘zbek milliy pazandaligining asosi qadimdan “yaxlitlik” tamoyiliga tayanib kelgan bo'lib, palov yoki manti kabi taomlar o‘zida ham go‘shtni, ham sabzavot va xamirni jamlagan bir butun ovqat hisoblangan. Biroq, hozirgi yosh avlod ovqatga qismlardan iborat “to‘plam” (set) sifatida qaramoqda. Ular uchun taom endi go‘sht, garnir va sous kabi bo‘laklar yig’indisidir. Instagram va TikTok ta’sirida taomning chiroyli, tartib bilan alohida idishlarda tortilishi ular uchun muhimroq bo‘lib bormoqda.

Shunga qaramay, yoshlar orasida “tabiiylikka” (ekologik tozalikka) katta e’tibor qaratish tendensiyasi ham mavjud. Antropolog J. Maklin ta’kidlaganidek, shahar aholisi qishloqdan keltirilgan mahsulotlarga alohida “ma’naviy qiymat” yuklaydi. Farg’ona yoshlari qadimiy milliy snak hisoblangan qurtni g’arbning sun’iy mahsulotlariga muqobil ravishda tanlamoqdalar. Ular uchun qurt shunchaki yegulik emas, balki tabiiy kalsiy manbaiga ega bo‘lish vositasidir. Shuningdek, yoshlarning maxsus masofa bosib So‘qoq somsasi yoki vodiydagi “Katta somsa”larni qidirib borishi Maklin aytgan “community” ramzidir. Iste’molchilar uchun mahsulotdagi tayyorlovchining “qo‘l izlari” haqiqiylik va

insoniy mehnatning kafolati sifatida qabul qilinmoqda. Urbanizatsiyalashgan yosh avlod "haqiqiy ta'm" nima ekanligini bilsalar-da, an'anaviy bilim tashuvchisi bo'lgan keksa avlod vakillarining tanloviga tayanishga majbur bo'ladilar. Aida Alimbayeva ta'kidlaganidek, internet bugungi kunda "gastronomik millatchilik" maydoniga aylangan. Yoshlar milliy taomlarni shunchaki yegulik emas, balki milliy ramz sifatida taqdim etadilar. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek palovi haqidagi postlar — bu o'z milliy guruhiga mansublikni namoyish etish usulidir.

Ommaviy madaniyat sharoitida dunyo bo'ylab taomlarning "unifikatsiyasi" kuzatilmoqda. Farg'ona yoshlari orasida "Pitsza" yoki "Gamburger" tanlash — bu dunyo bilan hamnafaslik belgisi sifatida qabul qilinmoqda. "Fud-bloging" va ishonch instituti yoshlar orasida yangi fikr yetakchilarini keltirib chiqardi. Natijada taomlanish fiziologik ehtiyojdan "trenddagi joyda bo'lish" va ijtimoiy maqom belgisiga aylandi. "Mukbang" va "ASMR" videolari esa yoshlarda "vizual ochlik"ni keltirib chiqarib, taomni "tomosha ob'ekti"ga aylantirmoqda. Germaniya yoshlari misolidagi "Karnaval effekti" kabi "himoya mexanizmi" Farg'ona vodiysida ham ishlaydi. Respondentlar kundalik hayotda "Lavashni afzal ko'rsalar-da, Navro'z va Hayit bayramlarida milliy taomlarga qaytadilar. Demak, bayramlar — globallashuv to'lqiniga qarshi turuvchi asosiy ijtimoiy institut vazifasini o'tamoqda. Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysi yoshlari taomlanish madaniyati bugungi kunda "Gibrid model" asosida rivojlanmoqda. Bir tomondan, standartlashgan global trendlar ustuvorlik qilsa, ikkinchi tomondan, bayramlar va ekologik tendensiyalar ularni o'z tarixiy ildizlariga qaytaruvchi langar vazifasini bajarmoqda. Bu jarayon yoshlarning global va milliy qadriyatlar orasida o'zining yangi gastronomik o'zligini shakllantirayotgan faol qatlam ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Bourdieu P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – Harvard 2.University Press, 1984.

3.Менсон П. Социология назариялари. – Тошкент: Akademnashr, 2012.

4.Cheung S., Tan C. B. Food and Foodways in Asia: Resource, Tradition and Identity. – London: Routledge, 2007.

5.Алимбаева А. Nations of Plov and Beshbarmak: Gastronomic Nationalism and Digital Media. – Бишкек, 2018.

6.McLean J. The Moral Value of Food in Kazakhstan: The taste of Zhailau. // Central Asian Survey. – 2020.

7.Маҳмудов К. Ўзбек миллий таомлари сирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982.

8.Сметанина К. Ю. Гастрономические традиции в пространстве массовой культури. // Культура и социум. – 2021.

9.Павловский И. В. Пища как атрибут культурних и пространственних координат. – Москва: МГУ, 2019.